


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Rektorning ____ -sonli
buyrug'i bilan
TASDIQLANGAN
(2014-yil 21-iyun)

O'quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yxatga
olindi
№ **5140053**
2014-yil 20-iyun

"KELISHILDI"
TDPU O'QUV ISHLARI
BO'YICHA ROREKTORI
D.Ergashev
2014-yil " " " "



**"O'QITUVCHI NUTQI
MADANIYATI"**
ISHCHI O'QUV DASTURI

Oliy ta'limning

- Bilim sohasi:** 100 000 – Gumanitar soha;
200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.
- Ta'lism sohalari:** 110 000 – Pedagogika;
230 000 – Iqtisod.
- Ta'lism yo'nalishlari:** 5140900 - "O'qituvchilarini tayyorlash va
pedagogika fani" ta'lism sohasidagi
5140900 - Kasb ta'limi yo'nalishi uchun

TOSHKENT - 2014

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor N. Husanov
filologiya fanlari nomzodi, dotsent D. Rasulmuhammedova

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent O'.Lafasov
filologiya fanlari nomzodi A.Saparov

Fanining ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014-yil dagi 20-maydag'i 20-sonli majlisida muhokama etillib, fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsija qilingan.

Kafedra mudiri

N.Husanov

Fanning ishchi o'quv dasturi Moliaviy menejment fakulteti Kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsija qilingan (2014-yil 5-iyundagi 10-sonli bayonnomma).

Fakultet dekani

O.Astanakulov

Kelishildi:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

A.Karimov



KIRISH

Nutq madaniyati insonning ma`naviy kamolotga erishuviga, jamiyatning madaniy-ma`rifiy rivojida muhim rol o`ynaydi.

Nutq madaniyati tildan maqsadga muvofiq foydalangan holda to`g`ri va chiroyli nutq tuzishni o`rgatadi.

Ta`lim va tarbiya jarayonida asosiy vosita o`qituvchining nutqi hisoblanadi. Ayniqsa, mutaxassislik sohalari bo`yicha o`qituvchi uchun nutq madaniyatini mukammal bilish talab etiladi.

Ushbu dastur madaniy nutq va unga qo`yiladigan talablar, o`qituvchining nutq madaniyati uchun zarur bo`lgan kommunikativ sifatlar haqida ma`lumot beradi.

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi - talabalarga madaniy nutq va unga qo`yiladigan talablar haqida to`la ma`lumot berish; nutqning asosiy sifatlari (to`g`riligi, aniqligi, tozaligi, mantiqiyligi, ta`sirchanligi, maqsadga muvofiqligi) to`g`risida ma`lumot berish; olingan nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini shakllantirish.

Fanning vazifasi - talabalarning tom ma`nodagi adabiy nutq malakalarini hosil qilishlariga ko`maklashishdan iborat. Iqtisodiy bilimga ega bo`lgan mutaxassis yoki shu soha bo`yicha o`qituvchi qo`l ostidagi kishilar va talabalar qalbiga yo`l topa olishi, ularni ijodiy va samarali mehnatga rag`batlantira olish kerak. O`qituvchining nutq madaniyati hamda o`quvchilar bilan muloqotga kirisha olish malakalarini shakllantirish.

1.2. Fanni o`zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi

“O`qituvchi nutqi madaniyati” o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o`qituvchi faoliyatida nutq madaniyatining tutgan o`rni hamda o`quvchilar bilan muloqotga kirisha olish to`g`risida tasavvurga ega bo`lishi;
- adabiy til norma (me`yor)lari; madaniy nutqqa qo`yiladigan talablarni bilishi; nutq uslublari va nutq madaniyati masalalari, madaniy nutq ko`nikmalariga ega bo`lishi; o`z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo`llay olishi;
- o`qituvchi o`z soha terminlarini bilishi va nutqiy jarayonlarda ulardan to`g`ri foydalana olishi hamda adabiy tilda sof gaplasha olish ko`nikmalariga ega bo`lishi lozim.

1.3.Fanning o`quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fani ixtisoslik fani hisoblanib, barcha bakalavr yo`nalishlarining 5-semestrida o`qitiladi. Dasturni amalga oshirish o`quv rejasida umumkasbiy blok fanlaridan yetarli bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishlik talab etiladi.

1.4. Fanni o`qitishda qo`llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun mohiyati.

Talabalarning “O`qituvchi nutqi madaniyati” fanini o`zlashtirishlari uchun o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o`zlashtirishda darslik, o`quv va uslubiy qo`llanmalar, amaliy mashg`ulot ishlanmalari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi.

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta`limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo`llanilishi nazarda tutilgan.

Har bir mavzu yakunida axborot va pedagogik texnologiyalari keltirilgan hamda ularni qo`llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o`quv-uslubiy majmua(O`UM)da bayon etilgan.

«O`qituvchi nutqi madaniyati» fanining *ma`ruza mashg`ulotlarida* ma`lumotlarni ko`rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

insert jadvali:

- mustaqil o`qish, ma`ruza tinglash jarayonida olinadigan ma`lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.
- oldindan olingan ma`lumotni yangisi bilan o`zaro bog`lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog`lash):

Ma`lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g`oyalarni yig`ish.

Toifali jadval:

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiyl).

- ajratilgan belgilarga ko`ra olingan ma`lumotlarni birlashtirishni ta`minlaydi;
- tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko`nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval:

O`rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo`yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko`nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali:

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

- matn (mavzu, bo`lim) bo`yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;
- tizimli mulohaza kilish, tarkibga ajratish ko`nikmalarini beradi.

T-jadval:

Bita kontseptsiya (ma`lumot)ning jihatni o`zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

BLOT-tahlil jadvali:

Tashkilot resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni tashkilot bo`yicha umumiyl tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo`yicha ham

amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada kilish, taqqoslash, solishtirish, taxlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

« O`qituvchi nutqi madaniyati » fanining amaliyot mashgulotlarida muammoni jamoali tarzda xal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo'yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlar faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O'z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinushi.

Pinbord texnikasi:

Muammoni xal etish buyicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi:

Muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakatlar algoritmgaga muvofiq ma'lum belgilari bo'yicha guruhananadi.

Keys stadi:

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o'rghanish metodi.

Shuningdek, «« O`qituvchi nutqi madaniyati »» fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (Micrasoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust), slaytlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

1.5. Bakalavriatning barcha ta’lim yo`nalishlari uchun

№	Mavzular nomi	Jami soat	Shu jumladan:		
			ma’ruza	amaliy mashg’ulot	mustaqil ta’lim
1	2	3	4	5	6
1.	“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari.	6	2	2	2
2.	Nutqning kommunikativ sifatlari. O`qituvchi nutqining to`g`riliqi	6	2	2	2
3.	O`qituvchi nutqining aniqligi	6	2	2	2
4.	O`qituvchi nutqining mantiqiyligi	8	2	2	4
5.	O`qituvchi nutqining sofligi	8	2	2	4
6.	O`qituvchi nutqining boyligi	6	2	2	2
7.	O`qituvchi nutqining jo`yaliligi va ifodaliligi	12	4	4	4
8.	O`qituvchining nutq texnikasi	8	2	2	4
	Jami:	60	18	18	24

2. O`QUV MATERIALLARI MAZMUNI

2.1. MA`RUZA MASHG`ULOTLARI

2.1.1. “O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining tuzilishi, maqsadi va vazifalari (2 soat)

«O`qituvchi nutqi madaniyati» fanining tuzilishi, maqsadi va vazifalari. Nutq madaniyati va boshqa fanlar. « O`qituvchi nutqi madaniyati » fanining manbalari.

Iqtisodyotning rivojida tilning vazifalari: iqtisodiy bilimlarni avloddan-avlodga yetkazish, iqtisodchilar o`rtasida o`zaro fikr almashish vositasi, iqtisodiy tafakkur yuritish quroli.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Muammoli topshiriqlar, blits-savol, aqliy hujum, kompyuter, slaydlar, multemediya apparatidan “birgalikda o`rganish” usuli, texnikalari: insert, savol-javoblar, prezентatsiyadan foydalaniladi.*

[A1,A 2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A9, A11; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q20]

2.1.2. Nutqning kommunikativ sifatlari. O`qituvchi nutqining to`g`riliği (2 soat)

Nutqning madaniyigini ta`minlashda to`g`rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, joyanlik kabi kommunikativ sifatlarning ahamiyati. Nutqning to`g`riliği boshqa barcha kommunikativ sifatlarining poydevori ekanligi, adabiy me`yor va uning ahamiyati. Adabiy me`yorning barqaror hodisa ekanligi.O`qituvchi nutqining to`g`riliği nutq madaniyati haqidagi ta`limotning bosh masalasidir.

O`zbek adabiy tili me`yorlari: leksik me`yorlar, talaffuz me`yorlar, so`z yasalish me`yorlari, morfologik me`yorlar, sintaktik me`yorlar, uslubiy me`yorlar.

Adabiy me`yor va badiiy nutq.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Ma`ruza, vizuallashtirish, aqliy hujum, muhokama, texnikalari: test o`tkazish, B/B/B jadvali*

[A1, A2, A5, A6, A7, A9, A11, A12; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q18]

2.1.3. O`qituvchi nutqining aniqligi (2 soat)

O`qituvchi nutqida aniqlik va muloqot. Fikrning aniq va ravshanligi. Nutqiy ifoda va fikr. Nutq va voqelik o`rtasidagi munosabat. O`qituvchi nutqining aniqligi va so`z tanlash. So`zning leksik ma`nosi va nutq. O`qituvchi nutqida sinonimlarning ahamiyati. Nutq tuzishda polisemantik, shakldosh so`zlar, tarixiy va arxaik so`zlarning ahamiyati.

Yunon donishmandi Aristotel, rus adibi L.N.Tolstoy, fransuz faylasufi Mishel Manten, fransuz adibi Anatil Franslarning nutq aniqligi haqida fikrlari

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, insert, birgalikda o`qish, aqliy hujum, muammoli topshiriqlar usuli, texnikasi: “o`yla-ishla va juftlikda fikr almash”, “ko`p-ko`p”, blits-so`rov, grafik organayzer.*

[A1, A2, A3, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q24]

2.1.4. O`qituvchi nutqining mantiqiyligi (2soat).

Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to`g`ri va to`liq anglanishi uchun zaruriy bo`lgan sifatlaridan biri ekanligi, mantiqiylilikning, nutqning to`g`riliği va aniqligiga aloqadorligi. Mantiqiylilikda so`zlar va gaplar o`rtasidagi semantik aloqalar. Narsa va tushuncha mantiqiyligi. O`qituvchi mantiqiy nutq tuzishda ijodiy matnlardan foydalanishi. O`qituvchi o`z nutqida mantiqiylikka erishish uchun gapdagi so`zlar tartibiga e`tibor berish. Tildagi funksional sintaktik vositalar, jumlalar va abzatslar o`rtasidagi bog`liqlik.

Nutqning mantiqiyligi fikr izchilligi, tushuncha va fikrlar o`rtasidagi munosabatda namoyon bo`lishi.

Qo'llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: Ma'ruza, muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, texnikasi: “o`yla-ishla va fikr almash”, blits-so'rov, grafik organayzer: klaster, “Savol-javob” jadvali, sinkveyn.

[A1, A2, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q20, Q24]

2.1.5. O`qituvchi nutqining sofligi (2 soat).

Nutqning sofligi nutq va jamiyat munosabatida namoyon bo`lishi. O`qituvchi nutqining sofligi insonning ma`naviy-ma`rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko`rsatkichdir. O`qituvchi nutqining sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar: shevaga xos so`z, ibora, grammatik shakllar, urg`u va talaffuz; o`rinsiz qo`llangan xorijiy so`zlar (varvarizmlar); jargon va argolar; dag`al va haqorat so`zlar (vulgarizmlar); parazit so`zlar; idoraviy so`z va iboralar; kanselarizmlar.

Sof nutqni shakllanishida badiiy asarlarning o`rni.

Qo'llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: Vizual ma'ruza, insert, aqliy hujum, texnikalar: blits so'rov, klaster, insert.

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q18, Q19, Q20]

2.1.6. O`qituvchi nutqining boyligi (2 soat).

Nutqning boyligi til unsurlaridan qay darajada foydalanishga bog`liq ekanligi. Nutq tuzishda o`qituvchining til vositalaridan foydalanish imkoniyati va nutqiy zahirasi. O`qituvchining so`z boyligi. O`qituvchining so`z boyligini oshirishda badiiy asarlar, lug`atlarning o`rni. Nutq boyligi va sintaktik vositalari.

Nutqning boyligi mehnat, izlanish, ko`p o`qishga bog`liqdir.

Qo'llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: Vizual ma'ruza, texnika: prezentatsiya, aqliy hujum, grafik organayzer: klaster

[A1, A2, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q17, Q19, Q20]

2.1.7. O`qituvchi nutqining jo`yaliligi, nutqning ifodaliligi (4 soat).

O`qituvchi nutqning jo`yaligi nutqiy muloqotda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Jo`yalik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday aloqalantirish va bir-biri bilan bog`lashki, buning natijasida nutq konkret muloqotning maqsadi va

sharoitlariga javob beradigan tarzda tarkib topadi. O`qituvchi nutqining yozma, og`zaki shakillarida joyanlikning o`rni. Jo`yalik va nutqiy vaziyat.

O`qituvchi nutqining ta`sirchanligini ta`minlashda ifodalilikning o`rni. Ifodalilik tinglovchi yoki o`quvchi diqqatini o`ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatdir. Nutqning ifodaliligining turli uslublarda o`ziga xos ekanligi. Ifodalilikni yuzaga kelishida tovush qurilishi, so`z xazinasi, marfologik shakllar, sintaktik birliliklar, intonasiyaning o`rinliligi.

O`qituvchi nutqining ifodaliligin tanlashda frazeologizmlarning, ko`chma ma`noli so`larning, tasviriy vositalarning ahamiyati.

Qo'llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Mualliflik ma'ruzası, B.B.B jadvali, klaster, blits so`rov*

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.1.8. O`qituvchining nutq texnikasi (2 soat).

Nutq texnikasi o`qituvchi nutqi madanayatining muhim qismidir. Nutq texnikasi – ovoz sifati, to`g`ri nafas olish, aniq tlaffuz, aniq leksiya. O`qituvchining nutq texnikasi o`quvchilar uchun etalon namuna ekanligi. O`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar: nuqsonli ovoz, tovushni noaniq aytish, nafas olishdagi tartibsizliklar.

Nutq texnikasini takomollashirishda fonetika fonologiyaning ahamiyati.

Qo'llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Vizual ma'ruza, sinkveyn, slayd.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q153, Q16, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2. AMALIY MASHG`ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO`YICHA KO`RSATMALAR

2.2.1. “O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining tuzilishi, maqsadi va vazifalari (2-soat)

- 1.«O`qituvchi nutqi madaniyati» fanining maqsadi va vazifalari.
- 2.Til va nutq birligi. Ularning o`xhash va farqli jihatlari.
- 3.Til madaniyati va nutq madaniyati. Mutafakkirlarning bu boradagi qarashlari.
- 4.Nutq madanayatining boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

Qo'llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Muammoli topshiriqlar, blits-savol, aqliy hujum, kompyuter, slaydlar, multemediya apparatidan “birgalikda o`rganish” usuli, texnikalari: insert, savol-javoblar, prezantatsiyadan foydalaniladi.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8; Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.2. Nutqning kommunikativ sifatlari. O`qituvchi nutqining to`g`riliqi (2 soat)

1. Nutqning kommunikativ tasnifi.
2. O`qituvchi nutqining to`g`riliqi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning asosi ekanligi.
3. O`qituvchi nutqining to`g`riliqini buzuvchi vositalar.
4. Nutqning to`g`riliqi buzilgan matnlar bilan ishlash.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Ma`ruza, vizuallashtirish, aqliy hujum, muhokama, texnikalari: test o`tkazish, B/B/B jadvali*

[A1, A2, A5, A6, A7, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.3. O`qituvchi nutqining aniqligi (2 soat).

1. O`qituvchi nutqining aniqligi va muloqot.
2. O`qituvchi nutqida aniqlik va so`z tanlash.
3. Nutq tuzishda polisemantik, shakldosh, tarixiy va arxaik so`zlarning ahamiyati.
4. O`qituvchi nutqining aniqligi buzilgan matnlar bilan ishlash.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, insert, birgalikda o`qish, aqliy hujum, muammoli topshiriqlar usuli, texnikasi: “o`yla-ishla va juftlikda fikr almash”, “kop-kop”, blitz-so`rov, grafik organayzer.*

[A1, A2, A3, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q14, Q15, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.4. O`qituvchi nutqining mantiqiyligi (2soat).

1. Shabl va mazmun birligi - mantiqiy nutqning zaruriy jihat.
2. O`qituvchi nutqining mantiqiyligi va izchilligining uzviy bog`liqligi.
3. O`qituvchi mantiqiy nutq tuzishda ijodiy matn yaratishning ahamiyati.
4. O`qituvchi nutqining mantiqiyligi va izchilligini ta`minlovchi vositalar.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Ma`ruza, muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, texnikasi: “o`yla-ishla va fikr almash”, blitz-so`rov, grafik organayzer: klaster, “Savol-javob” jadvali, sinkveyn.*

[A1, A2, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.5. O`qituvchi nutqining sofligi (2 soat).

1. Nutq sofligining nutqiy munosabatlarda namoyon bo`lishi.
2. O`qituvchi nutqining sofligini ta`minlash.
3. O`qituvchi nutqining sofligini buzuvchi omillar: varvarizm, jargon va argolar, vulgarizmlar, parazit so`zlar, kanselerizmlar.
4. O`qituvchi nutqining sofligi va tozaligi buzilgan matnlar bilan ishlash.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, insert, aqliy hujum, texnikalar: blits so`rov, klaster, insert.*

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q18, Q19, Q20]

2.2.6. O`qituvchi nutqining boyligi (2 soat).

- 1.Nutqning boyligi. O`qituvchining so`z boyligi.
- 2.Nutq tuzishda o`qituvchining til vositalaridan foydalanish imkoniyati va nutqiy zahirasi.
3. O`qituvchining nutq boyligi va sintaktik vositalari.
4. Badiiy nutqda nutq boyligining aks etishi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, texnika: prezentatsiya, aqliy hujum, grafik organayzer: klaster*

[A1, A2, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q15, Q16, Q17, Q19, Q20]

2.2.7. O`qituvchi nutqining jo`yaligi va ifodaliligi (4 soat).

1. O`qituvchi nutqida jo`yalilik va nutqiy vaziyat.
- 2.O`qituvchi nutqining ta`sirchanligini ta`minlashda ifodalilikning o`rni.
3. Badiiy adabiyotda, matbuotda jo`yalik va ifodalilikning aks etishi.
- 4.Matbuotda nutqiy ifodalilikning aks etishi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Mualliflik ma`ruzasi, B.B.B jadvali, klaster, blits so`rov*

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.8. O`qituvchining nutq texnikasi (2 soat).

- 1.Nutq madaniyatining kasbiy faoliyatdagi o`rni.
- 2.Nutq texnikasi o`qituvchi nutqi madanayatining muhim qismi.
- 3.O`qituvchi nutq texnikasining o`ziga xos xususiyatlari.
- 4.O`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar: nuqsonli ovoz, tovushni noaniq aytish, nafas olishdagi tartibsizliklar

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, sinkveyn, slayd.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q20]

3.1 MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta`lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo`lib, nutq madaniyatini o`rganishda mavzularni to`laroq o`zlashtiradi.

Mustaqil ish uchun ajratilgan soatlarni talaba o`zlashtirish uchun ularga referat yoki mustaqil ish shaklida mavzular taqsimlab beriladi. Mustaqil ta`limning mavzulari

talabalar uchun mustaqil o'zlashtirishlari shart bo'lgan mavzular va amaliy mashg'ulotlardan tashkil topgan. U talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va kengayishiga, o'qitilayotgan va o'tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o'rganishda hamda dunyoqarashini yana ham kengayishiga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limga ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar, ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlarga tayyoragarlik ko'rishga qaratilgan. Bundan tashqari talabalar, ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirishlari natijasida ilmiy maqolalar tayyorlashlari mumkin, hamda ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkin. Referat, taqdimot, ma'ruzalar kafedra tomonidan belgilab berilgan hajmda bo'lishi kerak. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim.

"O`qituvchi nutqi madaniyat" fani bo'yicha mustaqil ta'limining mazmuni

Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari	Hajmi(soatda)
So'z qudratli va buyuk vosita	Taqdimot tayyorlash	Mavzu yakunida	
Mutafakkirlarning til, nutq va so'z haqidagi qarashlari.	Test va slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	
Yoshlarda yuksak ma`naviy fazilatlarni shakllantirishda nutq madaniyatining o'rni	Test va slayd tayyorlash	Oraliq baholashda	
O`qituvchi nutqining o`ziga xos xususiyatlari	Test va slayd tayyorlash	Mavzu yakunida	
Insonda hamma narsa go`zal bo`lishi kerak. Nutqiy etiketni o'rganish.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Mavzu jarayonida	
Badiiy asarda nutq madaniyat masalalari: Abdulla Qahhorning so'z tanlash mahorati	Slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	
Yunon donishmandi Aristotel, rus adibi L.N.Tolstoy, fransuz faylasufi Mishel Manten, fransuz adibi Anatil	Referat tayyorlash	Oraliq baholashda	

Franslarning nutq aniqligi haqidagi fikrlari			
Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy asarlarida notiqlik, milliy muomala madaniyati masalalari.	Taqdimot tayyorlash	Oraliq baholashda	
Nutq madaniyatini egallash yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari.	Referat taqdimot	Mavzu jarayonida	
Kaykovus suxandonlik xususida	Taqdimot tayyorlash	Mavzu yakunida	

3.2. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanini o`qitishda multimedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo`yicha ishlab chiqilgan Power Point formatidagi jadvallardan, kompyuterdan, audio va video jihozlardan, dioproektor va kodoskoplardan foydalilanildi. Shuningdek, ma’ruza va amaliy mashg`ulotlar davomida turli xil falsafiy tushunchalar va ularning xarakteristikalarini tavsiflovchi tarqatma materiallar, tahliliy jadvallar, slaydlar hamda ko`rgazmali qurollar qo’llaniladi.

Bundan tashqari quyidagilar ham qo’llaniladi:

- didaktik materiallar tayyorlash;
- delfa metodini qo’llash orqali ko’nikmalar shakllantirish;
- verbal ifodalash;
- “B/B/B” metodi;
- insert metodi;
- kontseptual metod;
- “CASE STUDY (keys)” metodi va boshqalar.
-

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanini o`rganishda talabalar dasturiy axborot tizimlari orqali falsafaning dolzarb yangiliklaridan xabardor bo`lishlari va o`qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

4.1. Reyting nazorati jadvali

Bakalavriatning barcha ta'lim yo'naliishlari uchun

Рейтинг назорати турлари	Семестр хафталари																				Аттестация	Баллар	Саралаш баллари
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20					
ЖН	0-16.5	0-16.5	0-17		0-16.5		0-16.5			0-17									0-100				
ОН		0-50								0-50									0-100				
Σ (ЖН+ОН)										0-200									0-200				
ЯН																			0-100				
Жами										0-300									0-300				

4.2. JN bo`yicha baholash mezonlari

JN amaliy mashg`ulotlar o`zlashtirilishi bo`yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg`ulotda talabaning o`zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida jami 0-100 ballgacha jamlanishi belgilangan.

4.3.ON bo`yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg`ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o`tkaziladi. ON bo`yicha talaba jami 0-100 ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o`qitilgan mavzulari bo`yicha o`zlashtirish nazorati turli shakllarda o`tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o`tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-100 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

4.4. Σ (JN+ON) bo`yicha baholash mezonlari

Σ (JN+ON) 0-200 gacha bo`lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		Σ (JN+ON)
	JN	ON	
“O`qituvchi nutqi madaniyati” fani mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarda dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimining o`rni, insonning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo`lgan munosabati bilan bog`liq masalalar bo`yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, falsafiy tushunchalar haqida ijodiy fikrlaydi, falsafiy qonun va kategoriyalarning mohiyatini tushuntirib beradi, mustaqil mushohada yurita oladi, mohiyatini tushuntira	86-100	86-100	172-200

oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.			
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha to`la bilimga ega. Mashg`ulotlarda “O`qituvchi nutqi madaniyati” fani haqida tasavvurga ega bo`ladi ,mustaqil mushohada yurita oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	71-85	71-85	142-170
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg`ulotda fan bilan bog`liq masalalar bo`yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	56-70	56-70	112-140
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg`ulotda fan bilan bog`liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-55	0-55	0-110

4.5. YaN ni baholash mezonlari

YaN “Yozma ish” yoki “Test sinovi” shaklida (0-100) ballgacha belgilangan mezon asosida yoki majmuali shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o’tkaziladi. YaN og`zaki shaklda o’tkazilganda 0-100 bo’lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq belgilangan:

YaN bo`yicha baholash mezonlari	YaN
O`qituvchi nutqi madaniyati fani mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarda nutqi madaniyati va notiqlik san`ati tarixini biladi, nutqning kommunikativ tasnifi bo`yicha o’z nuqtai nazarini bayon etadi, til va nutq haqida bilimlarga ega bo`ladi, xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo’llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	86-100
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha to`la bilimga ega. Mashg`ulotlarda til va nutq haqida yaxlit tasavvurga ega bo`ladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo’llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	71-85
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg`ulot mavzulari bilan bog`liq masalalar bo`yicha mavzu savollari mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	56-70
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg`ulotda mavzu savollari bilan bog`liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-55

5. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA’MINOTI

Tavsiya etilayotgan mavzular bo`yicha ta’limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari pedagogik va informatsion-kommunikatsion (mediata’lim, amaliy dastur, paketlari, taqdimot, elektron-didaktik) texnologiyalari majmuali tarzda qo’llanilishi nazarda utilgan. Jumladan, kompyuter dasturlari yordamida audit o’tkazish uchun talab etiladigan manbalar nazariy-amaliy jihatdan shakllantiriladi va olingan ma’lumotlar o’rganiladi. Buxgalteriya hisoboti va moliyaviy ko’rsatkichlarni avtomatlashtirish borasida amaliy dasturiy paketlardan (“1C Predpriyatie”, “1C Buxgalteriya”, “BEM”, “Audit-ekspert” va hokazo) shuningdek, EXCEL jadval prosessori kabilardan foydalilanadi.

6. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Mahmudov N. O`qituvchi nutqi madaniyati. Darslik. O`zbekiston milliy kutubxonasi. T.: 2009. 188 b.
2. Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san`ati T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. 132 b.
3. Ona tili – davlat tili. T: “Adolat”, 2004. 80 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud ahloq. T: “O`qituvchi”, 1992. 160 b.
5. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. T: “Navro’z”, 1997. 95
6. Begmatov E. O’zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doir // “O’zbek tili va adabiyoti”, 2006. №4, 3-9 betlar.
7. Jamolxonov H.A. Hozirgi o’zbek adabiy tili. T: “Talqin”, 2005. 272 b.
8. Jumaxo’ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. T: “Sharq”, 1998. 160 b.
9. Yo’ldoshev M. Cho’lpon so’zining sirlari. T: “Ma’naviyat”, 2002. 80 b.
10. Kaykovus. Qobusnoma. To’ldirilgan 2-nashri. T: “Istiqlol”, 1994. 173 b.
11. Mahmudov N. Ma’rifat manzillari. T: “Ma’naviyat”, 1999. 64 b.
12. Qo’ng’urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T: “O`qituvchi”, 1992. 160 b.

Qo`shimcha adabiyotlar

13. Navoiy. Asarlar. 15-tomlik. 14-tom. T: G’.G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 272 b.
12. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. T: “Ma’naviyat”, 2003. 112 b.
13. Ta’lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari (O’zbek tili 5-doimiy anjumani tezislari). T: “Sharq”, 1999. 256 b.
14. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV-jild. T: «Ma’naviyat», 2006. 336 b.
15. Abdurahmonov X. Mahmudov N. So’z estetikasi. T.: Fan 1981, 38 b.
16. Nazarov K. Usmonov S. Tohirov O’. Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.
17. Ortiqov A., Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. T.: 2002.
18. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T.: O’qituvchi, 2003.
19. Husanov N. Nutq madaniyati fanidan ma’ruza matnlari. T.: TMI, 2001, 106 b
20. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. T.: «Adolat», 2005. 90 b.
21. Mirtojiyev M. Mahmudov N. Til va madaniyati T.: O’zbekiston, 1992.
22. Rustamov A. So’z xususida so’z. T.: «Yosh gvardiya», 1987, 160 b.
23. Meliboyev A. Nutq va mahorat. – T.: «O’zbekiston adabiyoti va san’ati». 2005-y, 21 oktabr.
24. Internet saytlari
 - www.tfi.uz
 - www.thinsan.com
 - www.dersimiz.com
 - www.altinmiras.com
 - www.ziyonet.uz